

OLIV O'QUV-YURTI TALABALARIDA KOMMUNIKATIV QOBILYATNI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Qodirova Nilufar Abdusattor qizi

Namangan davlat universiteti doktoranti, Namangan muhandislik-qurulish instituti ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya:

Maqolada oliy ta'lim talabalarini (bo'lajak pedagoglar) muloqot madaniyati haqida tushunchaga ega bo'lishlari va uni kelajakda o'quvchilarga to'g'ri qo'llay olishni bilish asosiy omil ekanligi o'rganib chiqilgan. Muloqot madaniyati kishining yetuklik va komillikka erishganlik belgisi ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: *kommunikatsiya-muloqot, bo'lajak pedagog, qobilyat, madaniyat, o'qituvchi-o'quvchi, ta'lim va tarbiya.*

MECHANISMS FOR THE FORMATION OF COMMUNICATIVE ABILITIES IN STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

Abstract:

In the article, it is studied that it is the main factor for students of higher education (future pedagogues) to have an understanding of the culture of communication and to know how to apply it correctly to students in the future. It is explained that communication culture is a sign of a person's maturity and perfection.

Key words: *communication, future pedagogue, ability, culture, teacher-student, education and training.*

МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ КОММУНИКАТИВНЫХ СПОСОБНОСТЕЙ У СТУДЕНТОВ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ

Аннотация:

В статье исследуется тот факт, что студенты высших учебных заведений (будущие педагоги) имеют представление о культуре общения и умеют правильно применять его к студентам в будущем. Объясняется, что культура общения является признаком зрелости и совершенства человека.

Ключевые слова: *общение-диалог, будущий педагог, способности, культура, учитель-ученик, воспитание и обучение.*

Kirish

Insonning o'zini qurshab turgan olam bilan o'zaro birgalikdagi harakati odamlar o'rtasidagi ularning ijtimoiy hayoti va ishlab chiqarish faoliyati jarayonida tarkib topadigan ob'ektiv munosabatlar sistemasida yuz beradi. Kishilar ishlab chiqarish jarayonida tabiatgagina emas, balki bir - birlariga ham o'zaro ta'sir ko'rsatadilar.

Prezidentning 21.06.2022 yildagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [PQ-289](#)-son qarori qabul qilindi. Shunga ko'ra, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlab oliy o'quv yurtlarigacha ta'lim-tarbiya tizimlarida pedagogik va psixologik bilimlarni o'qitishda muhim siyosiy vazifa sifatida qaralmog'I lozim. Mutaxassislar tayyorlash ishini hududiy jihatdan muvofiqlashtirish hamda yosh avlodani kasb va bilimlarni chuqur egallashga kengroq jalb qilish maqsadida respublikamiz viloyatlarida bir qator mustaqil universitetlar tashkil qilindi. Endilikda respublikamiz oliy o'quv yurtlaridagi mavjud barcha mutaxassisliklar bo'yicha o'quv rejalari pedagogik bilimlar asosida qayta ko'rib chiqilmoqda.

Ta'lim-tarbiya sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish va jadallashtirishdan iborat hozirgi davr talabi bu soha xodimlari oldiga quyidagi muhim vazifalarni qo'yadi:

- Yoshlarni xalqimizning boy tarixi va madaniyati bilan uzluksiz ravishda tanishtirib borish va shu asosda ularning milliy-ma'naviy ongini shakllantirish va rivojlantirish;

- Muloqot madaniyati haqidagi tushunchalarni shakllantirishga asoslangan yoshlarga pedagogik-psixologik ta'lim berish metodologiyasini ishlab chiqish va shu asosda amaliy tarbiyani yo'lga qo'yish;

- Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari uchun pedagogika darsliklari va qo'llanmalarini yaratish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish va ularni amaliyotga joriy etish;

Respublikamizda bu vazifalarni hal qilish borasida bir qator ilmiy-tadqiqot, o'quv-pedagogik, uslubiy va dasturiy ishlar amalga oshirilgan: S.H.Temurova, O.Hasanboyeva, N.Muslimov, M.Ochilov, A.Q.Munavvarov, S.Usmonov, M.Kamoldinov, B.Vaxobjonov, N.V.Pavlova, S.Xusanxo'jayeva, M.G.Davletshin tomonidan yaratilgan O'zbekiston Respublikasida pedagogik fikrlarni rivojlanishiga oid antalogiya xalqimizning ma'naviy merosini o'rganish ishiga qo'shilgan kata hissa bo'ldi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.

Shu yo'nallishdagi ishlar qatorida O.Hasanboyevaning ilmiy-pedagogik izlanishlari diqqatga sazovordir. Bu ishlarda O'zbekistondagi pedagogik an'anaviy

namoyondalari bilan birgalikda yaqin tariximizning zaxmatkash maorifchalari, madaniyat va ma'naviyatimizning xassos vakillari va biz bilan yonma-yon turib mehnat qilayotgan hurmatli ustozlar va qadrli pedagog-olimlar, jonkuyar ma'rifatchilar haqida ham keng ilmiy pedagogik va biografik ma'lumotlar berilgan.

Oilaviy tarbiyaning samaradorligini oshirish masalalari A.Q.Munavvarov tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan. Bu izlanishlarda oilaviy muhitning axloq-odob normalari, oilada bola tarbiyasining turli jihatlarini pedagogik nuqtai nazardan atroflicha tadqiq qilingan. Muallif oilaning ravnaqi, kamol topishi, rivojlanishi, oiladagi bola tarbiyasining samadorligini oilalarning uning soni, tuzulishi, yashash joyi, umumiy intellektual saviyasi, ijtimoiy-ruhiy va moddiy holati, to'laonlik darajasi, oila a'zolarining kasblari, qiziqishlari, intilishlariga qarab turkumlashtirish asosida tadqiq qilingan.

Pedagogik muloqot - bu o'qituvchining o'quvchilar bilan darsda va darsdan tashqari vaqtda eng qulay psixologik muhit yaratishga qaratilgan kasbiy munosabatdir. Noto'g'ri pedagogik muloqotdan o'quvchida qo'rquv, ishonchsizlik paydo bo'ladi, e'tibor, diqqat, ishchanlik pasayadi, nutq dinamikasi buziladi, mustaqil fikrlash pasayadi. O'qituvchining o'quvchilar bilan muloqoti bunday kayfiyatga yo'l qo'ymasligi, o'quvchini faollikka undashi, unda quvonch paydo qilishi kerak.

A.S.Makarenko fikricha o'qituvchi muloqoti hurmat va talabchanlikka asoslangan munosabat bo'lishi kerak.

V.Suxomlinskiy aytadiki: "Maktab hovlisida gapirilganda har bir so'z o'ylangan aqlli, maqsadga qaratilgan bo'lishi kerak". O'qituvchi so'zi faqat quloqqa emas, balki yurakka ham qaratilgan bo'lishi kerak. O'quvchi o'qituvchisiga do'stiga, o'rtog'i va ustoziga bo'lgani kabi munosabatda bo'lishi kerak. O'qituvchi o'quvchi munosabati do'stlikka asoslanishi lozim. Umuman ilg'or pedagoglar fikricha tu'lim faqat hamkorlik pedagogikasi pozitsiyasida bo'lishi kerak.

Pedagogik kommunikatsiya – bu o'qituvchi professional aktivligining bir ko'rinishi bo'lib, bunda ta'lim va tarbiya vazifalarini o'qituvchi hamda o'quv – tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro ta'sir vositasi bilan hal qilinadi. Bir vaziyatda o'qituvchi baho beruvchi rolida chiqadi (o'qituvchi – direktor, o'qituvchi – ota - ona), ikkinchi holda uning o'zi baho oluvchi (o'qituvchi – direktor, o'qituvchi – metodist va inspektor va xokazo) hisoblanadi. Ravshanki, bunday hollarda pedagogik ta'sir ko'rsatish vazifalari va vositalari ham o'qituvchining pedagogik muloqoti har xil bo'ladi. Biz qo'yida faqat o'qituvchining o'quvchilar bilan muloqotini qarab chiqamiz.

Pedagogik muloqotning tarkibiy qismlari uning vazifalari, o'qituvchining o'quvchilar va kasbdoshlari bilan o'zaro aloqalari vositalari hamda usullari, muloqot xarakteriga baho berishdan iborat bo'ladi. Muloqot vazifalari o'z ichiga quyidagilarni

qamrab oladi: o'quvchiga yangi ma'lumot berish yoki fikr almashish; o'qituvchi bilan o'quvchilarning bir – birlarini o'zaro bilishlari; bir – birlarining hulqlarini tuzatish va boshqarish; muloqot har bir ishtirokchisi shaxsining imkoniyatlarini ochish va undan foydalanish, ularning o'z oldilarida turgan muammolarini o'zlari mustaqil hal etishlari; o'qituvchi shaxsiy fikrining pedagogik jihatdan maqsadga muvofiqligi; muloqot ishtirokchilarining bir – birlaridan qanoat hosil qilganliklari va xakozo.

Pedagogik muloqotning boshqa jihati – uning vositalari va usullaridir:

Vositalar tashkil etuvchi, baho beruvchi, intizomga undovchi (instruksiya, intizomini baholash va tanbeh berish) bo'lishi mumkin. Adabiyotlarda o'qituvchi, o'z ishining ustasi ekanligi ta'kidlanib, intizomga undovchi vositalarga nisbatan tashkiliy ta'sir ko'rsatishga ko'proq yondashiladi. Ha, umuman, bunday o'qituvchida ta'sir ko'rsatishlar soni hamkasbdoshlariga qaraganda ancha kam, bu esa uning darslarida o'quvchilar uchun «kommunikativ fazo» bo'shab qoldi, demakdir.

MUHOKAMA

Muloqot usuli sifatida shakllangan uslub amalda o'zining uchta shakli bilan namoyon bo'ladi: bilimlarni egallashda o'qituvchi bilan o'quvchilarning birgalikda hamkorlik qilishlari (demokratik uslub), o'qituvchining o'quvchilarga tazyiq o'tkazishi va ularning aktivligini ro'yobga chiqarmasligi (avtoritar uslub), o'qituvchining o'quvchilarga nisbatan neytral munosabatda bo'lishi va uning hal etilayotgan masaladan chetga chiqishi (liberal uslub);

1. Muloqotdagi vaziyat bir xil o'zaro harakatni («yonidan» moslashish), boshqa ishtirokchiga tazyiq o'tkazishni («yuqoridan» moslashish), boshqa ishtirokchiga muvofiqlashishni («quyidan» moslashish) o'z ichiga oladi.

2. Muloqotda emotsional tus berish xarakteri neytral hol orqali ijobiydan salbiygacha o'zgaradi. Bularning hammasi muloqot muhitini, sinfda ma'lum iqlimni yaratadi.

3. Yetuk pedagogik muloqot o'qituvchining - o'z-o'zini, muloqot jarayoni va natijalarini nazorat qilib borishni nazarda tutadi.

4. To'g'ri tashkil etilgan pedagogik muloqot davomida o'qituvchida tanlangan vositalarni vazifa va sharoitlarga muvofiqligining o'lchovi sifatida tushuniladigan pedagogik nazokat mujassamlanadi.

Pedagogik muloqotda qanday o'ziga xos qiyinchiliklar mavjud? Bu, eng avvalo, muloqot maxsus vazifalarining yo'qligidir, natijada o'qituvchi pedagogik muloqotni o'z mehnatining alohida tomoni sifatida qaramaydi, uni rejalashtirmaydi, muloqot usullarni takomillashtirib bormaydi, ayrim hollarda muloqotning barcha vazifalarini o'zaro tushunmasliklari, muloqot vositalarining qashshoqligi, bir xildagi va jozibador emasligi ham uchrab turadi. Masalan, o'quvchilarning tor doiradagi intizomga

chaqiruvchi, emotsional jihatdan salbiy tus berilgan muloqot ularga ko'pincha aks ta'sir keltirib chiqaradi. Pedagogik muloqot usullari ustida ishlashning asoslangan dasturini tuzish uchun har bir o'qituvchi o'zining qiyinchiliklarini tahlil qilib chiqishi muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik muloqotga doir barcha mashqlarning umumiy yo'nalishini mavjud pedagogik vaziyatlarda malaka hosil qilish, har bir muloqot ishtirokchisining imkoniyatlarini ochib berishga ko'maklashuvchi, uning shaxsiy hislatlarini rivojlanib borishini ta'minlovchi vash u muloqot orqali qoniqtiradigan va hokazo vositalaridan foydalanishni tashkil qiladi. Bunga bir qator mashqlar imkon tug'dirishi mumkin:

Muloqotning eng muhim funksiyalaridan biri - hamdard bo'lishdir. U boshqa kishi hissiyotlarini tushunish, boshqalar nuqtai nazarini ma'qullash qobiliyatini shakllantirish jarayonida amalga oshadi va jamoadagi munosabatlarni me'yorga keltiradi. Bunda o'quvchini, uning istaklarini tushunish va bular asosida o'quvchiga ta'sir etish zarurligi anglash o'qituvchi uchun juda muhimdir. Muloqot funksiyalarini bilish o'qituvchilar uchun dars va undan tashqarida o'quvchilar bilan bo'ladigan muloqotlarni yaxlit jarayon sifatida tashkil etishga yordam beradi. Darsga tayyorgarlik ko'rayotganda muloqotning barcha funksiyalaridan kompleks foydalanishga erishish zarur. Darsni rejalashtirayotganda faqat axborot berish haqida emas, balki o'quvchilarning o'z shaxsini namoyon qilishlarini va o'z shaxsiy qobiliyatini ham ko'rsata olishga sharoit yaratishni ham rejalashtirish zarur. Bunda o'qituvchi, ayniqsa, yordamiga muhtoj bo'lgan o'quvchilarga alohida e'tibor berishi, har bir o'quvchini qiziqtirish usullarini, hamkorlik va ijodkorlikka asoslangan mehnatni tashkil etishni oldindan o'ylab qo'yishi lozim. Muloqot bo'yicha yirik mutaxassis olim Kan-Kalik fikricha, professional pedagogik muloqot tarkibi quyidagilardan iborat:

- sinf-guruh bilan bo'ladigan muloqotni pedagog tomonidan modellashtirish (loyihalash);
- o'zaro ta'sir ettirishning dastlabki onlarida bevosita faol muloqot olib borish (kommunikativ hujum);
- pedagogik jarayon davomida muloqotni boshqarish;
- amalga oshirilgan tahlil qilish va uni kelgusi faoliyat uchun modellashtirish.

Muloqotning har bir elementlarini muvaffaqiyatli bajarish uchun quyidagilarga e'tibor berish zarur.

«Kommunikativ hujum» - o'z-o'zidan ma'lum bunda o'qituvchi o'quvchilarni tezda jalb qilish texnikasini bilishi, dinamik ta'sir va o'zini salobatli qilib ko'rsatish usullarini egallashi zarur. Muloqotning har bir bosqichida bo'lajak o'qituvchi nimani bilishi kerak?

"Kommunikativ ataka" bosqichida sinfni tezda ishga jalb qiladigan texnika kerak, o'zini tanitish va dinamik ta'sir usullarini egallash lozim. Muloqotni

boshqarish bosqichida o'quvchilar tashabbusini quvvatlash, dialog muloqot tashkil etish, o'z fikrlarini real sharoitga moslay olish ko'nikmalari zarur bo'ladi.

Natijalar

«Kommunikativ hujum» va «Miya hujumi»ning farqi nimada?

Muloqotni boshqarish bosqichida o'quvchilar tashabbusini ma'qullash, dialogik muloqot olib borish, haqiqiy sharoitga moslab o'z fikrlariga tuzatishlar kiritish zarur. Va nihoyat, muloqotni tahlil qilish- uning maqsadi, mazmuni va natijasini taqqoslashdir. Tabiiyki, o'qituvchi muloqotni, o'quv-tarbiyaviy jarayonni tashabbuskori va yetakchisi bo'lishi zarur. Buning uchun quyidagilar tavsiya etiladi.:

- «biz» sezgisini vujudga keltirish;
- o'quvchilarga ta'sir etishda shaxs aspektlarini kiritish;
- o'zini sinf (guruh) haqida ijobiy fikrga ega ekanligini his ettirish;
- faoliyatning aniq maqsadlarini ko'rsatish;
- o'quvchilarning ichki hissiyotlarini tushunish va ularga buni sezdirishi;
- ayrim o'quvchilargi nisbatan shakllanib borayotgan stereotip fikrlarni o'zgartirish.

Bularning hammasi yosh o'qituvchi faoliyatida samarali muloqot o'rnatishda to'siqlarga barham beradi. O'qituvchi darsni rejalashtira turib, faqat axborot berishni emas, balki bolalarni o'z fikrlarini bildirishi, o'zini tasdiqlashi uchun imkoniyat ham yaratishi kerak. Tahlil etapida maqsad, vosita va natijalar birgaligini tahlil etadi. O'quv tarbiya jarayonida o'qituvchi muloqotni tashkil etish va boshqarishda rahbar, tashabbuskor bo'ladi. Insonning axloqiy tarbiyalanganligi uning atrofidagi narsalarga bo'lgan turli - tuman munosabatlarda namayon bo'ladi. U insonning hislarida, kechinmalarida ifodalanadi hamda xulq atvorida hatti harkatida bo'ladi. Bolalarga yaxshilik qilish va mehribonlik ichki kechinmamiz bilan holatdagina emas, balki pedagogik faoliyatimizdagi bola bilan yoki sinf bilan munosabatdagi asosiy motiv asosiy rag'bat bo'lishi kerak. Rahbarlarning muloqotni boshqarish uslublari: avtoritar, demokratik, liberal uslub tarzida berilgan. Mana shu uslublarni pedagogik muloqotda o'qituvchi rahbarligi uslubi tarzida ko'rish mumkin.

Avtoritar uslub. O'qituvchi guruhning faoliyat yo'nalishini shaxsan o'zi belgilaydi, kim - kim bilan o'tiradi, kim-kim bilan ishlaydi o'qituvchi o'zi hal qiladi. Bunday uslubda ish yurituvchi o'qituvchi o'quvchilar tashabbusiga yo'l bermaydi. Hamkorlikning asosiy shakli - buyruq, ko'rsatma, instruksiya, ogohlantirish. Hatto kamdan kam bildiriladigan minnatdorchilik ham kamsitish shaklida bo'ladi. "Sen bugun yaxshi javob berding. Sendan buni kutmovdim" kabi. O'quvchi xatosini ko'rsa, uni tuzatish o'rniga ustidan kuladi. U yo'qida ish sekinlashadi yoki butunlay to'xtab qoladi.

Demokratik uslub. O'qituvchi faoliyat maqsadini har bir o'quvchi ongiga yetkazishga, ish borishini hal etishga hammani faol ishtirok etishga undaydi. O'zining

vazifasini faqat nazorat va muvofiqlashtirishda emas balki tarbiyalashda deb biladi, har bir o'quvchi rag'batlantiriladi, unda o'ziga ishonch paydo bo'ladi, o'z - o'zini boshqarish rivojlanadi. Demokratik uslubda boshqaruvchi o'qituvchi bolalarning individual qobiliyat va qiziqishlarini hisobga olib vazifalarni optimal tarzda taqsimlashga undaydi. Faollikni rag'batlantiradi, tashabbusni quvvatlaydi. Muloqotning asosiy shakli - iltimos, maslahat, axborot tarzida bo'ladi.

Liberal uslub. O'qituvchi jamoa faoliyatiga aralashmaslikka harakat qiladi, faollik ko'rsatmaydi, maslahatlarga formal qaraydi, turli ta'sirlarga tez beriladi. Javobgarlikdan o'zini olib qochadi.

Xulosa

Muloqot madaniyatini egallash bo'lg'usi pedagoglar uchun ayniqsa ahamiyatlidir. Chunki o'qituvchi faoliyati xamisha o'quvchilar bilan muloqotda kirishishni, o'zaro munosabatda bo'lishni taqozo etadi. Muloqot jarayoni tufayli o'quvchilarga ta'lim beradi, pedagogik ta'sir ko'rsatadi, ularda ilmiy dunyoqarash, yuksak e'tiqodni shakllantiradi, ijobiy axloqiy sifatlarni tarkib topdiradi. Lekin institutni tamomlab pedagogik faoliyatga yo'llanma olayotgan barcha talabalarni ham muloqot madaniyatini puxta egallagan, o'z fikrini boshqalarga erkin bayon qila oladigan, sof adabiy tilda so'zlaydigan mutaxassislar bo'lib yetishyapti, deb ayta olmayamiz. Shunday ekan, talabalarda muloqot madaniyatini, ayniqsa, pedagogik muloqotni tarbiyalash pedagogika institutlaridagi ta'lim tizimining ajralmas qismi, eng muhim vazifalaridan biri bo'lishi lozim.

Respublikamiz o'qituvchilari orasida o'z ishining ustasi, Xalq o'qituvchisi, xizmat ko'rsatgan o'qituvchi deb tan olingan, ota - onalar, yoshlar e'zozlab Ustoz deb ataydigan mo'tabar insonlar ko'plab topiladi. Ular pedagogik ishda fidoyilik ko'rsatib, muallimlik burchini yuksak darajada bajarib, bolalarga bilim berib, ular qalbiga halollik, go'zallik, haqiqat, odob ahloq nurini singdira olganliklari, xushmuomal bo'lganlari uchun ham bunday obro' va hurmatga erishganlar.

Afsuski, hamma muallimlar haqida ham shunday deb bo'lmaydi. O'zining dag'al muomalasi bilan bolaning ko'nglini o'qishdan sovutib, dilini o'rinsiz ranjitadiganlari hReam uchrab turadi. Pedagogik tajribada bunga misollar ko'plab topiladi. Bundaylar yoshlar tarbiyasiga, ularning axloqiga salbiy ta'sir etadilar. Tarbiyaviy ishlarga tuzatish qiyin bo'lgan darajada ziyon yetkazadilar.

REFERENCES

1. Давлетшин М.Г., С.Тўтчиева "Умумкасбий психология". Ўқув қўлланма. Т.2002.
2. Mamurova F. T., Abdullayeva N. K., Qahhorovna S. M. INNOVATIVE APPROACH AND MODERN TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF SCIENCE AND EDUCATION //Journal of Critical Reviews. – 2020. – Т. 7. – №. 7. – С. 1061-1063.
3. Мамурова Ф.Т., Абдуллаева Н.К., Маллабоев Н. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МЕТОДА «ОЦЕНКА» ПРИ ОЦЕНКЕ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ // Теоретические и прикладные науки. - 2019. - №. 11. - С. 80-83.
4. Маъмурова Ф., Абдуллаева Н. ТРЕНИНГ РАЗВИТИЯ СПОСОБНОСТИ МЫШЛЕНИЯ РЕБЕНКА //Экономика и социум. – 2019. – №. 4. – С. 501-504.
5. Абдуллаева Н., Мамурова Ф. ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ //Экономика и социум. – 2018. – №. 4. – С. 931-935.
6. Mamurova F. T., Abdullaeva N. K. CHOOSE A SPECIAL STUDENT PSYCHOLOGICAL METHODS //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2020. – Т. 2. – №. 3. – С. 525-529.
7. Н Абдуллаева, Ф Маъмурова, Н Тожимуродов, НЕОБХОДИМОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ОБРАЗОВАНИИ, Актуальные научные исследования в обществе, 2021
8. Курбанова С.М., Мадрахимова М.Б., Абдуллаева Н.К., В УСЛОВИЯХ ПОНИМАНИЯ И ЭФФЕКТИВНОГО ПРИМЕНЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ.- Теоретические и прикладные науки, 2020,
9. Ф Маъмурова, Н Абдуллаева ТРЕНИНГ РАЗВИТИЯ СПОСОБНОСТИ МЫШЛЕНИЯ РЕБЕНКА, - Экономика и социум.